

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### SUD EKSPERTIZASINING NAZARIY ASOSLARI

*Norboyev Sardor Qavmiddinovich*

*Buxoro davlat pedagogika instituti,*

*Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola sud ekspertizasining umumiy nazariyasiga bag'ishlanadi. Bundan tashqari, maqolada, sud ekspertizasining ahamiyati, uning inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi o'rni haqida ham so'z yuritiladi,

**Kalit so'zlar:** Sud ekspertizasi, kriminalistika, inson huquqlari, konstitutsiyaviy huquqlar

**Аннотация:** Данная статья посвящена общей теории судебной экспертизы. Кроме того, в статье также говорится о значении судебно-медицинской экспертизы, ее роли в обеспечении прав и свобод человека.

**Ключевые слова:** Судебная экспертиза, криминалистика, права человека, конституционные права.

**Annotation:** This article is devoted to the general theory of forensic examination. In addition, the article also talks about the importance of forensic expertise, its role in ensuring human rights and freedoms.

**Key words:** Forensic expertise, criminalistics, human rights, constitutional rights

Sud ekspertizasining nazariy asoslari - bu sud ekspertizasining asosiy tushunchalari, nazariy yondashuvlari, metodologik va uslubiy tamoyillari, shuningdek, sud ekspertizasi orqali amalga oshiriladigan faoliyatni tartibga soluvchi ilmiy va huquqiy me'yorlar majmuasidir.

“Ekspertiza” lotincha so'z bo'lib, “tajribali” degan ma'noni anglatadi. Lekin ijtimoiy hayotda birmuncha kengroq ma'noda tushuniladi. “O'zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonunining 3-moddasiga ko'ra, sud ekspertizasi – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat hisoblanadi”<sup>1</sup>. Mazkur moddaga ko'ra, sud eksperti deganda, xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida tayinlangan jismoniy shaxs tushuniladi. Ushbu moddaga asosan, davlat sud eksperti deganda – davlat sud-ekspertiza muassasasining o'z xizmat vazifalarini bajarish tartibida sud ekspertizasini o'tkazuvchi sud eksperti tushuniladi.

“O'zbekiston sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jarayonida sud ekspertizasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohaning zamonaviy texnik baza, yuqori aniqlikdagi tahlil vositalari bilan jihozlanishi odil sudlovni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Sud ekspertizasi markazi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga fuqarolik, xo'jalik, ma'muriy va jinoiy ishlarni yuritishda zamonaviy ilm – fan imkoniyatlaridan foydalangan holda nazariy va amaliy yordam ko'rsatayotir. Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib tashkil etilgan inson DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasi yordamida ochilishi qiyin bo'lgan jinoyatlar fosh etilmoqda.

Ekspertlik tadqiqotlari jahon standartlariga mos keladigan zamonaviy ilmiy darajada o'tkazilayotir. Bunda qonunchilik asoslari takomillashgani, O'zbekiston Respublikasining “Sud

<sup>1</sup> Sud ekspertizasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1633102>

ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni qabul qilingani ekspertlik faoliyatning huquqiy poydevorini mustahkamladi"<sup>2</sup>.

Bundan tashqari yana ta'kidlash joiz bo'lgan kriminalistika sohasi ham sud ekspertlik faoliyatida muhim o'rin tutuvchi sohadir. "Kriminalistika jinoyatlarini ochish va oldini olishda dalillarni topish, olish, mustahkamlash va tadqiq etish bilan bogliq harakatlarni JPKga ko'ra amalga oshiradigan taktik-metodologik usullarini qamrab oluvchi sohadir"<sup>3</sup>.

"Sud ekspertizasining umumiy metodologiyasi sud ekspertizasi umumiy nazariyasining ajralmas qismi sifatida so'nggi yillarda tadqiqotchilar e'tiboridan biroz chetda qolmoqda. Umuman olganda, sud-ekspert tadqiqotlari metodologiyasi jinoiy, ma'muriy yoki fuqarolik ishi holatlari to'g'risida yangi bilimlarni yaratish jarayoni degan fikrlar mavjud.

Metodlarni tahlil qilish sud ekspertizalari xilma-xilligi sababli juda murakkab masala, undan tashqari, har bir sud ekspertizasi muayyan bir fanning alohida tarkibiy qismi bo'lib, ularning farqlanishi sud ekspertizalarining tegishli sinflarini ham o'zaro ajratadi. Shu sababli, sud-ekspertiza tadqiqotlarining mazmuni ham sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, tadqiqotlarning metodlari va vositalarida ham farqlar (shuningdek, o'xshashliklar) mavjud. O'zaro farqlar mavjudligiga qaramay, sud ekspertiza tadqiqotlarining umumiy metodologiyasi haqida fikr yuritish mumkin. Sud-ekspertizalarini o'tkazishda bajariladigan vazifalarning kengligi va xilma-xilligi, tadqiqotlar jarayonida metodlar majmuidan foydalanishni taqozo qiladi. Bu metodlarni quyidagi guruhlarga ajratiladi:

**Bilishning umumiy dialektik-materialistik metodlari:** aynanlik, o'xshashlik, qarama-qarshilik va uchinchini inkor etish, mantiqiy qonunlardan, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, analogiya, gipoteza va xulosa chiqarish kabi usullar;

**Kriminalistikaning umum-ilmiy metodlari:** kuzatish yoki ko'zdan kechirish; o'lchash; ta'riflash; qayd etish; taqqoslash; eksperiment (tajriba), modellashtirish, prognoz qilish, matematik uslublar;

**Umumiy (umumilmiy) metodlar:** kuzatish (ko'zdan kechirish), o'lchash, tafsivlash (ta'riflab yozish), eksperiment, modellashtirish, taqqoslash, modellashtirish, rekonstruksiya (qayta tiklash), an'anaviy mantiqiy metodlar. Masalan, Sud-tovarshunoslik ekspertizalarini o'tkazishda o'lchov, ro'yxatga olish, hisoblash, organoleptik, taqqoslash, tafsivlash va boshqa metodlardan foydalaniladi. Mazkur metodlarning qo'llanilishi odatda kompleks xususiyat kasb etadi, chunki biri ikkinchisining imkoniyatlarini to'ldiradi va obekt to'g'risida maxsus ma'lumotni beradi.

**Xususiyy instrumental va yordamchi-texnik metodlar:** fizikaviy metodlar (ya'ni, mikroskopiya, lyuminessent tahlil, elektron-optik o'zgartirgich va televizion texnika yordamidagi tadqiqotlar, spektral tahlil, nam nusxalash, adsorbsion-lyuminessent metod va boshqalar); fizikaviy-kimyoviy metodlar (sud-tadqiqot fotografiyasi – fotografik reproduksiya, makrofotosuratga olish, mikrofotosuratga olish, ultrabinafsha fotografiya, infraqizil fotografiya, raqamli fotografiya; yupqa qatlamli xromatografiya; diffuzion-nusxalash metodi; yuqori chastotali elektr tokida suratga olish va boshq.); kimyoviy metodlar (miqdoriy va sifatiiy kimyoviy reaksiyalardan foydalanishga asoslangan metodlar).

**Maxsus metodlar:** har bir aniq turdagi sud ekspertizasi tadqiqotlarida qo'llaniladigan metodlar. Masalan, Sud-ballistika ekspertizasida: taqqoslash mikroskopiya, rentgen nurlari bilan tekshirish, profilografik metod, diffuzion-kontaktli metod, xromatografik metod, spektral tahlil (emission-spektral tahlil, adsorbsion tahlil – to'liq uzunligi o'zgaruvchan monoxromatik nurlanish hosil

<sup>2</sup> <https://kun.uz/44564545>

<sup>3</sup> Kriminalistika. Darslik. Mualliflar jamoasi - Toshkent: TDYU, 2018.- 6 b.

qiluvchi modda molekularini tekshiruvchi kombinatsion sochilgan spektrlar bo'yicha tahlil; lyuminessent tahlil; rentgen tahlili), skanerlovchi elektron mikroskopiya.

Bundan tashqari sud-xatshunoslik ekspertizasida: tizimli-strukturali tahlil; raqamli farqlovchi diagnostika; grafik metodlar; instrumental metodlar; miqdoriy metodlar; kibernetik metodlar; sifatiy-ta'riflash metodlar; kompleks metodlar va boshq. Shuningdek, hujjatlarning texnik-kriminalistik tadqiqotlarida: rastrli mikroskopiya metodi; aks etuvchi mikroskopiya metodi yoki «replikalar metodi; qaytuvchi ultrabinafsha va infraqizil nurlardagi tadqiqotlar; lyuminessent tahlil; spektral tahlil metodlari; emission-spektral tahlil; rentgenli tahlil; rentgen-strukturali tahlil; radioaktivatsion tahlil; ultrabinafsha, ko'rinuvchi va infraqizil spektroskopiya; nam nusxalash metodi; adsorbsion-lyuminessent tahlil (ALT); makro- va mikrosuratga olish, kontrastni kuchaytirish, spektrning ko'rinuvchi sohasida fotosuratga olish, lyuminessensiya hodisasini fotosuratga olish; yuqori chastotali toklar maydonidagi tadqiqotlar; diffuzion-nusxalash metodi (DNM); xromatografik metodlar, kimyoviy metodlar»<sup>4</sup>.

Muxtasar qilib aytganda, Sud ekspertizasining nazariy asoslari hamda uning amaliyotda qo'llanilishi sud tizimining samarali ishlashi uchun juda muhimdir, chunki har bir ekspertiza jarayoni sudning xolis va adolatli qaror qabul qilishiga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sud ekspertisasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1633102>
2. <https://kun.uz/44564545>
3. Kriminalistika. Darslik. Mualliflar jamoasi - Toshkent: TDYU, 2018.- 6 b.
4. Sud ekspertiza metodlari // <https://sudex.uz/?p=6426>

---

<sup>4</sup> Sud ekspertiza metodlari // <https://sudex.uz/?p=6426>